



SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA INTEGRATSIYASI

Negmatova Nilufar Ergash qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Makroiqtisodiyot
mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332672>

ABSTRACT

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 25-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Sug'urta, sug'urta bozori, tendensiya, YAIM, moliya tizimi, integratsiya.

Ushbu maqolada sug'urta bozorining rivojlanish jarayonlari va uning milliy iqtisodiyotga integratsiyasi tahlil qilinadi. Sug'urta sektori iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy xavflarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada sug'urta bozori rivojlanishining asosiy omillari, uning iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligi hamda global va milliy darajadagi tendensiyalar ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari tomonidan nafaqat mamlakatimizdagi, balki xorijiy mijozlarni ham ishonchini qozona oladigan sug'urta xizmatlarining keng turlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, mintaqaviy sug'urta xizmatlarini kengaytirish, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish milliy sug'urta bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biridir. Sug'urta insoniyat tarixining tadrijiy rivojlanishi bosqichlarida moliyaviy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib kelgan. Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtda, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sug'urta faoliyati o'ziga xos tarzda shakllangan va keng qo'llanilayotgan ijtimoiy hodisa bo'lib, barqarorlik omili sanaladi. Mamlakat sug'urta bozori rivojini prognozlash o'z navbatida, biznes subyektlari va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada ta'minlash instituti sifatida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi.

I. Iqtisodiy islohotlarining bugungi sharoitida sug'urtaning iqtisodiy va moliyaviy asoslarini mustahkamlash

2022-ning 10-iyul kuni prezidentimiz SH. Mirziyoyev aynan sug'urta sohasini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi va quyidagi fikrlarni takidlab o'tdi: "Mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlarini sug'urta xizmatlari bilan qamrab olish muhim o'rin tutadi. Moliya vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini sug'urtalash xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmlarini yaratish lozim". Biz asosan milliy sug'urta kompaniyalarini xalqaro moliya bozoriga chiqishini ta'minlashimiz, ilg'or korporativ boshqaruv tizimini tashkil qilish orqali halqaro reyting olishimiz mumkin. Bu ham mamlakatimiz aholisi va tadbirkorlarini sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Sug'urta yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan, shuningdek, sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan

voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularni manfaatlari himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan sug'urta bozorining professional ishtiroklari bo'lgan yuridik shaxslarning ta'sischilari (ishtirokchilari) sifatida faoliyat yuritishlariga ruxsat berilgan. Fuqarolar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida paydo bo'ladigan, fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalarga asoslanadi. Bunda bir tomondan sug'urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug'urta tashkiloti oldidagi majburiyatlari paydo bo'ladi. Ya'ni, tuzilgan shartnomaga ko'ra, fuqaro o'z vaqtida sug'urta mukofotini to'lashi shart. Sug'urta hodisasi ro'y berganda esa, sug'urta tashkiloti sug'urta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sug'urta qoplamasi(summa)sini fuqaroga to'lab berishi lozim. Ko'rinib turibdiki, shartnoma fuqarolik-huquqiy hujjat taraflarning o'zaro munosabatini huquqiy tartibga solmoqda.

O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida sug'urta sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shu jumladan xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini hamda ushbu sohadagi eng yaxshi jahon tajribalarini izchil joriy etish, tartibga solish va prudensial nazoratning samarali mexanizmlarini joriy etish orqali sug'urta bozorining ishonchligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sug'urta faoliyatini tartibga solish tizimini institutsional rivojlantirish va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Sug'urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish, sug'urta brokerlari faoliyatini faollashtirish, sug'urta agentlarining ishlash tizimini takomillashtirish, bank sug'urta mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, umuman sug'urta bozori professional ishtirokchilarining rolini oshirish orqali sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish, sug'urta xizmatlari iste'molchilari va sug'urta faoliyatining boshqa subyektlari huquqlari himoyasini kuchaytirish, aholining sug'urta savodxonligini va sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, sug'urta bozorining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish va talab yuqori bo'lgan an'anaviy mahsulotlarni rivojlantirish orqali ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmlarini, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, sug'urta faoliyatini tashkil etish va tartibga solish sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, sug'urta xizmatlarining elektron turlarini faol joriy etish va rivojlantirish, sug'urta bozori mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, sug'urta sohasida ta'lim berishning zamonaviy usullarini qo'llash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish, milliy sug'urta bozorining ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turish hamda investitsiyaviy jozibadorligini, shu jumladan milliy sug'urta bozorini xalqaro va xorijiy sug'urta bozorlari bilan integratsiyalash orqali oshirishdir.

II. Iqtisodiyotni rivojlantirishda sug'urta tashkilotlari investitsiyalari

Sug'urta tashkilotlari tuzgan sug'urta shartnomasining boshlanishi va tugashi ma'lum bir muddatni o'z ichiga oladi. Mana shu davr mobaynida ko'p ming sonli sug'urta qildiruvchilardan kelib tushgan sug'urta mukofotlarining sug'urta zaxiralarini shakllantirishning yo'naltirilgan qismi vaqtincha bo'sh bo'ladi. Sug'urtaning ana shu xususiyatlarini hamda bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyot rivojlanishi yo'lida foydalanish uchun amaldagi qonun sug'urta tashkilotlariga investitsiya faoliyatini amalga

oshirishga ruxsat beriladi. Hozirgi kunda sug'urta kompaniyalari vaqtincha bo'sh mablag'larini, jumladan sug'urta zaxiralarini quyidagi

investitsiya obyektlariga joylashtirishlari mumkin:

- qimmatli qog'ozlar, jumladan davlat qimmatli qog'ozlar;
- bank depozitlari;
- ko'chmas mulk;
- boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi sug'urta sohasiga ham Islom dini o'z munosabatini bildiradi. Mamlakatimiz aholisining 80% dan ortig'i Islom dinida ekanligini hisobga olgan holda Sug'urta tizimidagi qonun-qoida va yangi ilohotlarimiz dinimizni qoralamasligiga ham e'tiborimizni qaratishimiz kerak, aks holda aholining turli xil qarshiliklarga duch kelishimiz mumkin. Islom sug'urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan takaful, vaqf, o'zaro yordam jamg'armalari va o'zaro sug'urta ko'rinishida. Misol uchun, "takaful" arabcha so'z bo'lib "o'zaro kafolatlash" ma'nosini bildiradi va O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama sug'urtaga mos keladi. Ushbu sug'urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko'rinishida ham qo'llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e'tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin. Sug'urta tashkilotining asosiy targ'ibotchisi, uni xalqqa yetkazuvchi vosita agent va ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada jonlantirish, ochiq muloqotlarni ko'paytirish, ommaviy axborot vositalarda chiqishlar sonini yanada oshirish hamda takror va takror ta'kidlash joiz malakali agentlar tayyorlash tizimini yaratish lozim. Zero, sug'urta xizmatlari ko'lamini oshirish uchun mijoz bilan ishlash talab etiladi. Malakali agentlar orqali mijozlarning talab va ehtiyojlariga mos sug'urta xizmatlari ko'rsatilsa, polislar sotilishining ortishiga olib keladi. Bu esa o'z-o'zidan aholining sug'urta madaniyati shakllanganligidan dalolat beradi. Takaful to'g'ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug'urta jamg'armasi tuziladi. Jamg'arma a'zolari oldindan e'lon qilingan tartib-qoidaga ko'ra sug'urta uchun badallarni ehson sifatida jamg'armaga kiritishadi, jamg'arma esa o'z mulkiga aylangan ushbu mablag'lar hisobidan a'zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug'urtadan ortgan mablag'larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo'yilishi yoki a'zolar o'rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg'armaning qoldig'idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko'rsatilishi mumkin. Jamg'arma boshqaruvi odatda tijorat tashkilotiga topshiriladi. Bunda boshqaruvchi tashkilot jamg'armaga egalik qilmaydi, balki jamg'arma faoliyatini vakil sifatida boshqaradi va o'zining xizmatlari evaziga jamg'armadan haq olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda, boshqaruvchi tashkilot va jamg'arma a'zolari o'rtasida manfaatlar qaramaqarshiligi yuzaga kelmaydi, chunki jamg'arma hisobidan zararlarini to'lamaslikdan boshqaruvchi tashkilot hech qanaqasiga manfaatdor bo'lmaydi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozim: jamg'armaning tovon to'lovidan ortgan qismi jamg'arma va uning a'zolari ixtiyorida qoldiriladi, ya'ni boshqaruvchi tashkilot tasarrufiga o'tkazilmaydi.

Xulosa

Sug'urta bozori milliy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlik xavf-xatarlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sug'urta tizimida amalga

oshirilayotgan islohotlar, xususan, raqamlashtirish jarayonlari, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar hamda qonunchilik bazasining takomillashuvi ushbu sektorning jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda, balki fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish va iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishda ham faol ishtirok etmoqda.

Shu boisdan, sug'urta bozorining milliy iqtisodiyotga chuqur integratsiyasi nafaqat makroiqtisodiy barqarorlik, balki iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, xususi sektorni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralishi zarur. Kelgusida bu sohaning yanada taraqqiy etishi uchun xalqaro standartlarga mos infratuzilmani shakllantirish, sug'urta madaniyatini ommalashtirish va soha mutaxassislarini malakali kadrlar bilan ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Shennayev X. "O'zbekiston sug'urta bozori". Oliy o'quv yurtlarining "Sug'urta ishi" mutaxassisligi bo'yicha magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma. TMI. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2022.
2. Ochilov I.K. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil metodologiyasini takomillashtirish: Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2021
3. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug'urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent. TDIU, 2023.- 349 b
4. NE Negmatova. "THE IMPORTANCE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY". Educational Research in Universal Sciences. 2023/1/31. сt 128-133
5. Nilufar Negmatova, Nilufar Jo'raqulova, Muhiddin Muqumov, Nigina Qahramonova. "GPON TEXNOLOGIYASI-OPTIK KIRISH TARMOG'I VA UNING UZATISH TARMOG'SXEMASI". Академические исследования в современной науке. 2023/2/6. Ст 99-112
6. Tulqin o'g'li, Usmonov Maxsud, and Sayifov Botirali Zokir o'g'li. "Negmatova Nilufar Ergash qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li, BIRINCHI VA IKKINCHI TARTIBLI HUSUSIY HOSILALAR." TO'LA DIFFERENSIAL. TAQRIBIY HISOBLASH, BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022).
7. Tulqin o'g'li, Usmonov Maxsud, and Sayifov Botirali Zokir o'g'li. "Negmatova Nilufar Ergash qizi." Qodirov Farrux Ergash o'g'li, IKKI ARGUMENTLI FUNKSIYANING ANIQLANISH SOHASI, GRAFIGI, LIMITI VA UZLUKSIZLIGI, BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022).